


Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik savodxonlikni shakllantirish





2-mavzu: Tabiatning kichik yordamchilari

2.1. Mashg'ulotning o'qitish texnologiyasi

Mashg'ulotning maqsad va vazifalari	Ta'lim beruvchi faoliyati: • Bolalarga plastik idishlar ko'payib ketganda tabiatga yetadigan zararlar haqida sodda, vizual misollar orqali tushuntiradi. • "Tabiatning kichik yordamchilari kim?" ✓ Plastikni qutiga tashlaymiz; ✓ Qog'ozni alohida yig'amiz; ✓ Paketni qayta ishlatamiz. • Qayta ishlash bo'yicha baklashkadan suv purkagich yasashga yo'naltiradi.	Ta'lim oluvchilar uchun kutilayotgan natijalar: • Plastikni to'g'ri yig'ish, saralash va qayta ishlashni biladi. • Interfaol o'yinlarda chiqindilarni to'g'ri ajrata oladi. • O'zini tabiat yordamchisi sifatida ko'ra boshlaydi.
O'quv jarayoni mazmuni va mashg'ulotni amalga oshirish texnologiyasi	• Kirish – motivatsiya • Asosiy faoliyat – o'yin • Yakun – rag'bat	Shakl: interfaol o'yinlar, STEAM Metod: rolli o'yin Vosita: Plastik idishlar, qog'oz, savatchalar, rasmli kartochkalar, qayta ishlash materiallari O'qitish sharoiti: Xavfsiz tajriba burchagi, ochiq maydon yoki keng xona, harakatli o'yin o'tkazish uchun joy

2.2. Mashg'ulotning texnologik xaritasi

Kirish qismi (5 daqiqa)	• Tabiat rasmi ko'rsatiladi va "Nega tabiat go'zal?" savoli beriladi. • Plastik idish ko'rsatilib, muammoli vaziyat yaratiladi: "Agar buni yerga tashlasak, nima bo'ladi?"	• "Nega tabiat go'zal?" savoliga javob beradilar. • Muammoli vaziyatga javob izlaydilar.
Asosiy qism (18 daqiqa)	"Plastikni qutiga tashla!" • Xonaga turli "axlatlar" qo'yiladi (qog'oz, plastik, shisha kartochkalar). • Rolli o'yin.	"Plastikni qutiga tashla!" • Bolalar yugurib narsalarni to'g'ri qutiga tashlaydi. • Faqat plastik bo'laklarini "plastik qutisi"ga yig'ishlari kerak. • Rolli o'yinda rol bajaradilar.
Yakunuy qism (7 daqiqa)	Interfaol o'yin: "To'g'rimi - noto'g'ri?" Refleksiya savollari: • Bugun tabiatga qanday yordam berdik? • Plastikni nima qilish kerak? Rag'bat: "Yosh ekolog" yorlig'i taqdim etiladi.	Tarbiyachi aytadi, bolalar belgilarni ko'tarishadi. Xulosa qiladilar.

🦊 ROLLI O'YIN : "Hayvonlar raqsi"

O'rmon ichida quvnoq hayvonlar yashardi: 🐰 🦔

Har kuni ular birga raqs tushib, tabiatni asrashga yordam berishardi.

Lekin bir kun ularning o'rmoniga odamlar dam olishga kelishdi va atrof plastik idishlarga to'lib ketdi!

Hayvonlar raqsni to'xtatib, yig'ilish o'tkazishdi:

"Plastikdan qutulmasak, raqsga tusholmaymiz!" deb o'ylashdi.

Shunda ular bolalarga murojaat qilishadi:

🐾 "Bizga yordam bering, kichik eko qahramonlar!"



Tarqatmali materiallar



Tarqatmali materiallar



Jamoaviy ish: "Tabiatning kichik yordamchilari kim?"

Bolalar 3 ta harakatni nomlaydi:

- ✓ Plastikni qutiga tashlaymiz
- ✓ Qog'ozni alohida yig'amiz
- ✓ Paketni qayta ishlatamiz

STEAM amaliy faoliyati:

Plastik idishdan kichik buyum yasash:

Gultuvak

Qalamdon

Suv purkagich



Yakuniy qism uchun:

Interfaol o'yin: "To'g'rimi - noto'g'ri?"

Tarbiyachi aytadi, bolalar belgilarni ko'taradi:

Plastikni yerga tashlaymiz ✗

Plastikni qayta ishlaymiz ✓

Plastik daryoga tushsa yaxshi ✗

Tabiatga yordam beramiz ✓

